

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 4 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbanov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i>	
"KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i>	
AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrukh Gulomovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i>	
FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i>	
YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Eanova Nilufar Pulatovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abdurahimova Saboqhat Erqash қизи</i>	
БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i>	
MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i>	
AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA) .....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i>	
QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI .....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Sultonov Bahodir Fайзуллаевич, Turaeva Gulizahro Kaxhorovna, Norbўtaev Baxtiёр Abdurahimovich</i>	
СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ .....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salieva</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i>	
QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rakhimov Oйбек Bахтиёрович</i>	
СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i>	
BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH	
YO'LLARI .....	111-125

<i>Fatmaхова Муниса Абдухамитовна</i>	
ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ	
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133

<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY	
MEXANIZMNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i>	
RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA	
TAMOYILLARINING AHAMIYATI .....	141-147

<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i>	
IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAqidagi G'OYALARNING SHAKLLANISH	
EVOLYUTSIYASI .....	148-154

<i>Каримова Гулчехра Абдукаримовна</i>	
ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС	
ЖИҲАТЛАРИ .....	155-163

<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA BAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH	
NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168

<i>Muminov Nozim Naimovich</i>	
THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND	
TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175

<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i>	
СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180

<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i>	
SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI .....	181-184

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛарнинг	
ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	185-191

<i>Петрухина Наталья Михайловна</i>	
КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО	
СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197

<i>Исаев Оман Рисалиевич</i>	
ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205

<i>Родина Ирина Витальевна</i>	
АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА	
«ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211

<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i>	
THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE	
OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i>	
ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i>	
THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i>	
PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV BAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нулуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i>	
СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Xayrulloeva Sitora Lutfulloevna</i>	
PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i>	
“LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Tukhtayeva Наргисхон Исамутдиновна</i>	
ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i>	
ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbanova Aziza Bozor qizi</i>	
DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i>	
TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i>	
GASTRONOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRONOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330

*Asqarova Madina Boymurod qizi*

KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI ..... 331-334

*Калниязов Есемурат Шамшетович*  
ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ ..... 335-342

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Bahodir To'raev*

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI ..... 343-351

*Tursoatov Содик*  
РАФБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ..... 352-357

*Хидиров Фурқат Шуқуруллаевич*  
МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИННИГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ ..... 358-363

*Rahimbaev Уткир Файзуллаевич*  
ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ ..... 364-372

*Tursynbaev Азизбек Халмурзаевич*  
МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ ..... 373-377

*Yakubov Abduraxmon Turayevich*  
TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI ..... 378-382

*Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli*  
YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENTSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA ..... 383-387

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Хайров Расим Золимхон угли*  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ..... 388-395

*To'rayev Panji To'xtayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH ..... 396-400

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*  
TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIKNING AHAMIYATI ..... 401-406

*Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna*  
TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH ..... 407-411

*Turdimurodov Dilmurod Yo'l doshevich*  
SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI ..... 412-418

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ	
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В	
ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA XORIJY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI	
QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHIYATINI OSHIRISH	
METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i>	
ТАЛАБАЛАРНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ	
МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i>	
MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINING	
AHAMİYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i>	
"ELEKTROMAGNETIZM" BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMİYATI	
.....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING	
MAVJUD HOLATINI TAHLILIY BAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i>	
IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i>	
TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O`QITISH	
TEXNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i>	
O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY	
FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i>	
TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdumannonovna</i>	
MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI	
LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i>	
ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ	
ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Каҳрамонович</i>	
ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО	
МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*  
IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING  
INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*  
ЎҚУВ МАШГУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539

## 09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

**Tilavova Umida Qahramonovna**  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
NavDPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasи o'qituvchisi  
Email: [umidatilavova23@gmail.com](mailto:umidatilavova23@gmail.com)

### RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA TAMOYILLARINING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Jahon mamlakatlarining barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami shiddat bilan rivojlanmoqda. Natijada, bu jarayonda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy me'yorlarning o'zgarishi, balki axborotlashtirish tufayli insонning tafakkuri, uning ma'naviy-axloqiy talablari ham o'zgarishi kuzatilmoqda. Hozirgi tezkor zamonda ro'y berayotgan har qanday salbiy o'zgarishlarga bardosh bera oladigan ma'naviy-axloqiy imperativlar va qadriyatlar tizimini shakllantirish bilan bog'liq informatsion etika masalasini o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Informatsion etika tamoyillarini axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganish bo'yicha bir qator tashabbuslarning boshlanishi ham mazkur soha muammolarini o'rganishning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** informatsion etika, vijdon, informatsion deontologiya, utilitarizm, hurmat, xolislik, aniqlik, mas'uliyat

**Tilavova Umida Kakhrmonovna**  
Doctor of philosophy (PhD)  
teacher of the department of "Social sciences" of NSPI

### THE IMPORTANCE OF INFORMATION ETHICS CATEGORY AND PRINCIPLES IN THE SYSTEM OF DIGITAL SOCIETIES

**Abstract.** The use of digital technologies in all sectors of the world is rapidly developing. As a result, in this process, not only socio-economic and cultural norms are changing, but also human thinking and spiritual and moral requirements are changing due to informationization. It is of scientific and practical importance to study the issue of informational ethics related to the formation of the system of moral and ethical imperatives and values that can withstand any negative changes occurring in today's fast-paced world. The beginning of a number of initiatives to study the ethical, legal and social aspects of the principles of information ethics also shows the relevance of studying the problems of this field.

**Keywords:** informational ethics, conscience, informational deontology, utilitarianism, respect, objectivity, accuracy, responsibility

**Тилавова Умида Каҳрамоновна**  
Доктор философии (PhD)  
преподаватель кафедры «Общественные науки» НГПИ

### ЗНАЧЕНИЕ КАТЕГОРИИ И ПРИНЦИПОВ ИНФОРМАЦИОННОЙ ЭТИКИ В СИСТЕМЕ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** Использование цифровых технологий во всех отраслях мира стремительно развивается. В результате в этом процессе из-за информатизации меняются не только социально-экономические и культурные нормы, но и человеческое мышление, духовно-нравственные требования. Научное и практическое значение имеет изучение вопроса информационной этики, связанного с формированием системы морально-этических императивов и ценностей, способной противостоять любым негативным изменениям, происходящим в современном быстро меняющемся мире. Начало ряда инициатив по изучению этических, правовых и социальных аспектов принципов информационной этики также показывает актуальность изучения проблем этой области.

**Ключевые слова:** информационная этика, совесть, информационная деонтология, утилитаризм, уважение, объективность, точность, ответственность

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N19>

**Kirish.** Dunyo jamiyatlarining barcha sohalarida axborot texnologiyalari bilan bog'liq taraqqiyot nafaqat ijtimoiy-madaniy makonni, balki shunga muvofiq inson ongi, tafakkuri va turmush tarzini ham tubdan o'zgartirib, bu borada informatsion etika deb nomlangan sohani rivojlantirdi. Ushbu tushunchaning o'zi juda ko'p qirrali bo'lib, turli ma'nolarda qo'llaniladi. Shuningdek, u insonni tashqi dunyo bilan mutlaqo yangicha munosabat o'rnatishga undaydi. Bizning fikrimizcha, informatsion etika axborotlashgan zamonaviy jamiyatlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan axloqiy muammolarni yengib o'tishga yordam beruvchi asosiy omil vazifasini bajaradi. Informatsion etika tamoyillarini axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganish bo'yicha bir qator tashabbuslarning boshlanishi ham mazkur soha muammolarini o'rganishning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Bugun vujudga kelgan informatsion etika boshqa sohalar kabi o'z doirasida yangicha kategoriyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu kategoriyalar, albatta, etika kategoriyalari asosida shakllangan bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra informatsion etikaning tavsifini ochib berishga xizmat qiladi. Informatsion etika kategoriyalari jumlasiga etika kategoriyalariga asoslangan holatda, eng umumiyligi ma'noda quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Vijdon
2. Informatsion deontologiya
3. Informatsion utilitarizm (foydalilik)

Vijdon bu-ichki axloqiy tushunchani anglatadi. Bu inson o'z xatti-harakatlarini, uning motivlarini, ichki istaklarini o'zini anglash nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini ifodalaydi. Informatsion etikaning murakkab soha ekanligi shundaki, u aksariyat holatlarda nafaqat davlat, balki boshqalar tomonidan tartibga solinmaydigan va nazorat qilinmaydigan soha hisoblanadi. Bu jarayonda har bir informatsion faoliyat yurituvchining vijdoni aynan uni nazorat qiluvchi vosita vazifasini bajaradi. Yana shuni ta'kidlash joizki, real munosabatlarda amal qiluvchi vijdon kategoriyasi bilan informatsion etika kategoriyasi sifatida tahlil etilayotgan vijdon o'rtasida ma'lum o'ziga xoslik mavjud. Xususan, insonlararo o'zaro yuzma-yuz munosabatlarda aksariyat hollarda vijdonan yondashuv ustunligi kuzatilsa, virtual munosabatlarda mazkur tushunchaga ehtiyoj yanada ortadi. Sababi shundaki, virtual munosabatlardan texnika-texnologiya orqali amalga oshiriladi va bunda onlayn foydalanuvchilarning o'zaro har qanday munosabatini axloqiy nuqtai-nazardan doim ham talabga javob beradi, deya olmaymiz. Bu jarayonda esa, vijdon ularning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirib turuvchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Raqamli jamiyatlarda insonlarda vijdon tuyg'usini shakllantirish masalasi shu jihatdan dolzARB

hisoblanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning bu boradagi fikrlariga e'tibor qaratsak: "...yoshlar hayoti, o'y-kechinmalari, orzu-niyatlari, eng muhimmi, ularni qiynayotgan masalalar, afsuski, radio va televideniye, gazeta va jurnallarda o'z ifodasini to'liq topmayapti. Go'yoki hamma narsa joyida, olam guliston. Agar hammasi joyida bo'lsa, to'g'ri yo'ldan adashgan yoshlar, jinoyatchilik, ishsizlik qayerdan paydo bo'lyapti? Nega yoshlarga oid davlat siyosatiga loqayd munosabatda bo'layotgan amaldorlar haqida ommaviy axborot vositalari, avvalo, yoshlar matbuoti churq etmaydi?" [1; 526-b.].

Informatsion deontologiya. Deontologiya-yunoncha "deontos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, burch degan ma'noni ifodalaydi. Bu axloqiy kategoriya har doim insonning o'z vazifasini bajarishiga qaratilgan. Burch axloqning tashqi xususiyatlari taalluqlidir va insonning boshqa insonlar bilan munosabatlarini tartibga soladi. Burch deganda shaxs tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq xatti-harakatlarni amalga oshirishi tushuniladi. Burch ijtimoiylik ahamiyati shundaki, u insonning, birinchi navbatda, uning ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq funksiyalarini bajarishga taalluqlidir. shuningdek, u insonni jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qoidalarga muvofiq harakat qilishga majbur qiladi. Agar vazifani bajarish ichki ehtiyoj va mas'uliyat bilan mos tushsa, demak, inson uni rasmiy ravishda emas, balki o'zining barcha kuch va qobiliyatlarini safarbar etib, natijada axloqiy qoniqish hissini boshdan kechiradi. Ko'pincha burchni bajarishga amal qilish yuqori axloqiy fazilatlarning mavjudligi bilan bog'liq. Burch tushunchasi jamiyat tomonidan insonga yuklangan tashqi vazifalarni ularni bajarish uchun ichki ehtiyojga aylantirishni nazarda tutadi. Shundagina odam uni ixtiyoriy va mas'uliyat bilan bajara boshlaydi.

Jamiyatda yashar ekanmiz, har birimizning o'z vazifamiz, burchimiz bor, jumladan, shaxs sifatida, ota-onasifatida, farzand sifatida, xodim sifatida va hakozo. Xususan, informatsion faoliyatimiz jarayonida ham bizning o'z burchlarimiz, vazifalarimiz mavjudki, doimo ularga asoslanish infosferada ijtimoiy muhitning sog'lomligini saqlab qolishga va yanada yaxshilanishiga yordam beradi. Xuddi shuningdek, informatsion deontologiya virtual dunyoda har bir foydalanuvchining amal qilishi lozim bo'lgan burch va vazifalariga asoslanadi. Bu burch va vazifalarni 3 turga ajratishimiz mumkin:

1. Axborot ishlab chiqaruvchilarining burchi;
2. Axborot tarqatuvchilarining burchi;
3. Axborot iste'molchilarining burchi.

Axborot ishlab chiqaruvchilarining burchi sifatida ular ishlab chiqayotgan ma'lumotlar obyektiv, haqiqatga asoslangan, izchil, subyektiv fikrlardan holi, shaxsiy manfaatlarga bo'ysunmaydigan bo'lishi talab etiladi.

Axborot tarqatuvchilarining esa deontologik nuqtai-nazardan informatsion xatti-harakatlari qabul qilingan ma'lumotlarning chin yoki xatoligiga amin bo'lmasdan boshqalarga tarqatmaslik, obyektiv ma'lumotlarni o'zgartirib, o'z manfaati yo'lida foydalanmaslik kabilarga asoslanadi. Axborot iste'molchilari informatsion jamiyatda eng ko'p son va qatlamni tashkil etgani holda, ularning ham bu jarayonda birmuncha murakkab burchlari mavjud. Har qanday axborot iste'molchisi o'zi qabul qilayotgan ma'lumotlarni tanqidiy-tahliliy nuqtai-nazardan baholay olishi, axborotlardan samarali foydalana bilishi, etika talablariga asoslangan holatda faoliyatini tashkil etishi bu holatda juda muhim hisoblanadi.

Informatsion utilitarizm (foydalilik).Utilitarizm (lot "utilis"-foyda) ga ko'ra, inson xatti-harakatining axloqiy qiymati uning foydaliligi bilan belgilanadi.

Utilitar axloqiy qoidalar ko'pchilik uchun foyda keltiradi, lekin bu, albatta, adolatli vositalar orqali amalga oshirilgan bo'lishi lozim. Ya'ni utilitarizmning afzalligi shundaki, u adolatni qadrlaydi va shu bilan birga ko'pchilikka foyda keltiradi. Shu nuqtai-nazardan, informatsion utilitarizm bugungi jamiyatning zamonaviy kishisi oldiga qo'yadigan eng asosiy vazifa bu-har qanday informatsion faoliyatining natijasida foydalilik qiymatining yuqori bo'lishi uning adolat tamoyillariga qay darajada amal qilinganligi bilan belgilanadi.

Informatsion etikaning tamoyillari haqida so'z borganda bu mavjud axloqiy tamoyillarni informatsion jamiyat nuqtai-nazaridan qayta ko'rib chiqishni, unga moslashtirishni talab etadi, deyish mumkin. Shu nuqtai-nazardan etika tamoyillarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Etikaning to'rtta fundamental tamoyili mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Shaxsga yoki shaxsiy hayotga nisbatan hurmat tamoyili: biz doimo har qanday vaziyat va holatda boshqa insonlarning shaxsini hurmat qilishimiz kerak. Bunga inson qadr-qimmati tamoyili ham deyiladi. Insonlarning rang-barang dunyoqarashlari va shu asosda qurilgan turmush tarziga nisbatan ijobjiy munosabatda bo'lish, qadrlash ushbu tamoyilning mohiyatini tashkil etadi.

2. Xayrixohlik tamoyili (muhtojlarga yordam berish). Har qanday inson insonparvarlik nuqtai-nazaridan boshqalarga yordam berishi, ularni qo'llab-quvvatlashi lozim. Bajarayotgan turli xatti-harakatlarimiz yaxshilik, ezhulik bilan sug'orilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

3. «Zarar bermaslik» tamoyili. Bizning xatti-harakatlarimiz boshqalarning shaxsiy hayoti va ijtimoiy mavqeyiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Hatto, biror bir faoliyat yoki harakat biz uchun qanchalik foydali ahamiyatga ega bo'lmasin, u boshqa insonlarning manfaati va maqsadlariga putur yetkazmasligi bu tamoyilning asosida yotuvchi muhim qoida hisoblanadi. Bunda insonlardan o'zgalarga zarar yetkazish xavfini oshirmsaslik, agar zararni oldini olishning iloji bo'lmasa, yetkaziladigan zararni minimallashtirish talab etiladi.

4. Adolat tamoyili. Inson jamiyatda faoliyat yuritar ekan, shu jamiyatning barcha a'zolariga nisbatan teng, xolis va odil munosabatda bo'lishi nafaqat o'z hayotining rivoji uchun, balki o'zgalarning ham istiqboli uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi tamoyillarga tayangan holda mutaxassislar informatsion etikaning ham tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qildilar va bu borada bir qancha olimlarning fikrlari diqqatga sazovordir.

Sungkyunkvan Universiteti professori Seongjin Ahn o'z tadqiqot ishlarida "Informatsion jamiyatda axborotdan to'g'ri foydalanish uchun informatsion etika bilan bog'liq bo'lgan ta'lim quyidagi tamoyillarni ko'zda tutishi lozim, deb hisoblaydi:

Birinchidan, informatsion faoliyat jarayonida doimo boshqalarga hurmatni rivojlantirish kerak.

Ikkinchidan, foydali ma'lumotlar bilan bo'lishish maqbul bo'lsa ham, boshqa odamlarning intellektual mulk huquqi buzilmasligi kerak

Uchinchidan, ma'lumotlarning har xil shakllaridan samarali foydalanish nazarda tutiladi.

To'rtinchidan, telekommunikatsiya va Internet haqiqiy hayotga zarar yetkazmaslik uchun maqbul vaqt oralig'ida qo'llaniladi" [4; 23-b.].

Axborot tizimlarini jadal rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq mislsiz yutuqlarni sanash bilan birga ular ortidan keladigan axloqiy muammolarni ham unutmaslik kerak. Va bu jarayonda V.Zvassning fikricha "Quyidagi tamoyillarga amal qilish informatsion etikani shakllantirishdagi eng asosiy vazifadir" [8; 583-b.].

Maxfiylik bu har qanday insonning shaxsi haqidagi turli ma'lumotlarni shaxsiy saqlash va uni boshqalarning ruxsatisiz foydalanishidan himoya qilish huquqidir. Ma'lumotlarni shaxsiylashtirish, boshqalarning ma'lumotlaridan o'zining manfaat va maqsadi yo'lida foydalanish kabilalar maxfiylikning buzilishi sifatida qaralishi mumkin. Axborotning aniqligi deyilganda, tarqatilayotgan axborotning sifati bilan bog'liq xususiyatlari nazarda tutiladi. Ma'lumotlar aniq deyilishi uchun, eng avvalo, to'liq, xatosiz va mos bo'lishi kerak. Lekin bugun biz barcha sohalarda tarqatilayotgan ma'lumotlarni bu talablarga javob beradi, deya olmaymiz.

Ma'lumki, moddiy obyektlarga nisbatan egalik huquqi kuchli darajada qonun orqali himoyalanadi. Ammo intellektual mulk masalasida doim ham bunday fikrni ilgari surolmaymiz. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, Internet xizmatlarining kengayishi bilan ushbu huquqning buzilishi uchun qulay imkoniyat va muhit paydo bo'ldi. Bunda boshqalarning ijod namunalaridan ruxsatsiz foydalanish, plagiatslik yoki boshqalarning yutuqlarini noqonuniy o'zlashtirish kabi holatlar ko'payib borayotganligini guvohi bo'lyapmiz.

Olim so'ngi tamoyil sifatida axborotdan foydalanishni nazarda tutar ekan, bu jarayonda har bir informatsion faoliyat yurituvchining har qanday axborotdan ochiq foydalanishda teng imkoniyatga ega bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.

Ba'zi manbalarda axborot tadqiqotlariga ta'sir etuvchi axloqiy tamoyillar orasida ijtimoiy foydalilik, anqlik, ijtimoiy mas'uliyat va inson shaxsini hurmat qilish kabilalar eng asosiyalaridir.

Masalan, ALA (America Library Association) kodi ham bu borada ba'zi tamoyillarni muhim deb hisoblaydi va ularning ikki xususiyatini ajratib ko'rsatadi: "bir tomondan, axborot makonida ko'rsatilayotgan xizmatlarning eng yuqori sifat darajasiga ega bo'lishi va boshqa tomondan, foydalanuvchilarining shaxsiy hayotiga va intellektual mulknini himoya qilish huquqlariga urg'u beradi" [2; 13-b.].

Axborot bilan ishslash jarayonida qanday qilib axloqiylik va mas'uliyatlilikka asoslanish mumkin, degan savol ustida fikr yuritar ekan, Richard J. Severson, qachonki, informatsion etikaning to'rt tamoyiliga amal qilgan holatda deb javob beradi va quyidagilarni ilgari suradi:

1. Intellektual mulknini hurmat qilish-biz boshqalarning ijod namunalari va nomoddiy mulklaridan ularning ruxsati bilan foydalanishimiz kerakligini anglatadi.

2. Shaxsiy hayotga hurmat-o'zgalarning shaxsiy hayotini va ular haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni ularning ruxsatisiz bo'lismish mumkin emasligini anglatadi. Buni yana quyidagilarda ko'rshimiz mumkin:

3. Adolatli vakillik-sotuvchi va reklama qiluvchi mahsulotning aynan reklama qilingandagidek vazifani bajarishiga ishonchi komil bo'lsagina uni targ'ib etishi mumkin, aks holda ishonchsizlikka olib keladi.

4. "Zarar berma" tamoyili -biz hech qanday vaziyatda boshqa insonning hayoti va ijtimoiy mavqeyiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlarni boshqalarga tarqatmasligimiz kerak" [7; 101-102-b.].

Shuni ta'kidlash lozimki, informatsion etika ma'lumotlardan maqsadli va mas'uliyatli foydalanishni ko'zda tutuvchi va targ'ib etuvchi soha hisoblanadi. Informatsion etika tushunchasi, eng avvalo, inson qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishni ko'zda tutuvchi qadriyatlarga asoslanadi va amal qiladi.

**Natijalar va muhokama.** Informatsion etika tamoyillari deganda, u bilan bog'liq bir qancha muhim talablarni keltirish mumkin. Inson hech qachon, hech qanday vaziyatda qasddan

o‘z harakatlari yoki harakatsizligi natijasida boshqalarga zarar yetkazishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Shuningdek, avvalo, ma’lumotlarni to‘liq tushunishga, har qanday axborot boshqalarga ta’sir qilishi mumkinligini yoddan chiqarmagan holda, atrofdagi voqeа-hodisalar haqidagi ma’lumotlarni avval yaxshilab o‘rganib, ishonch hosil qilib, keyin boshqalarga yetkazish va tushuntirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda, informatsion etikaning asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Hurmat: eng asosiy hisoblangan bu tamoyil axborot iste’molchisining informatsion faoliyati jarayonida, eng avvalo, o‘ziga nisbatan va shuningdek, boshqa insonlarga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Va bu munosabat o‘zgalarning shaxsiga nisbatan, xilma-xil hayotiga, dunyoqarashiga, intellektual mulkiga, salohiyatiga, maxfiylikka nisbatan hurmatni bildiradi. Afsuski, bu tamoyilga bugungi kunda internet olamining har bir faoliyat yurituvchisi amal qilyapti, deb aytolmaymiz va natijada virtual muhitning sofligi va barqarorligi tobora zaiflashib bormoqda.

2. Javobgarlik (mas’uliyat): bu tamoyil infosferadagi faoliyat jarayonida amalga oshiradigan har qanday xatti-harakatimizga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishdan iborat. Biz katta ahamiyatga ega emas deb tarqatayotgan axborot aslida kimningdir shaxsiy hayotiga, kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir o’tkazishi mumkin. Shuning uchun, kibermakonda axborot foydalanuvchilari o‘z harakatlarining qanday oqibatlarga olib kelishini diqqat bilan ko‘rib chiqishlari va oqibatini axloqiy tahlil etgan holda amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir. Infosferada sog‘lom axloqiy muhit shakllanishi uchun har bir axborot foydalanuvchisi o‘z faoliyatiga nisbatan diqqat e’tiborli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Boshqa tomonidan bu, sizga yaqinlaringiz, tanish-bilishlaringiz, hamkasblaringiz tomonidan yuborilgan xabarlarga (qo‘ng‘iroqlar, sms, audioyozuv, videoyozuv, va h.k) nisbatan e’tiborli bo‘lishni talab etadi. Aksariyat hollarda, ularning xabarlarini javobsiz qoldirish humatsizlik, mas’uliyatsizlik sifatida baholanishi mumkin.

3. Xolislik: virtual olamda harakat qilayotgan har bir kishi o‘zi taqdim etgan axborotning to‘g‘riliği, to‘liqligi, manfaatlardan holi ekanligi va xolisligi uchun ishonch hosil qilishi kerak va boshqalarning asosiy erkinliklari va huquqlarini buzmasligi kerak.

4. Aniqlik: bu o‘rinda aniqlik deyilganda, tarqatilayotgan axborotning sifati bilan bog‘liq xususiyatlari nazarda tutiladi. Ma’lumotlar aniq deyilishi uchun, eng avvalo, to‘liq, xatosiz va asoslangan bo‘lishi kerak. Lekin bugun biz barcha sohalarda tarqatilayotgan ma’lumotlarni bu talablarga javob beradi, deyolmaymiz.

5. Me’yor: telekommunikatsiya va Internet real hayotga ta’siri haddan ortib ketmasligi uchun maqbul vaqt oralig‘ida foydalanishi va, albatta, vaqt nuqtai-nazaridan chegaralanishi lozim. Aks holda, virtual olamga haddan ortiq bog‘lanib qolgan inson real hayotdagi mavjud vazifalarini unutib qo‘yishi va unda atrof-muhitda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga nisbatan befarqlik hissi shakllanishi mumkin.

Informatsion etikaning yuqoridaq tamoyillariga rioya etish o‘ylaymizki, har qanday axborotlashgan jamiyat a’zosining informatsion faoliyatini oqilona tashkil etish uchun asos bo‘ladi.

**Xulosa.** Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, raqamli jamiyat istiqbolli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning muhim talabi sifatida informatsion etika kategoriylarini ishlab chiqish va informatsion faoliyat yurituvchilari tomonidan amal qilinishiga erishish muhim masala hisoblanadi. Informatsion etika kategoriyalari sifatida vijdon, informatsion deontologiya, informatsion utilitarizm (foydalilik) tushunchalarini mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish va keng tatbiq etish zaruriyati mavjud.

Ikkinchidan, informatsion etika tamoyillarini ishlab chiqishda etikaning an'anaviy tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiq, albatta. Lekin bu jarayonda uning mahalliy xususiyatlaridan chekinib, global ahamiyat kasb etishiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Ya'ni, an'anaviy axloq aslida lokal xarakterga ega, xususan, har bir jamiyatning o'z dunyoqarashi, turmush tarzi, mentalitetidan kelib chiqib, axloqiy qarashlari shakllanadi. Bundan farqli o'laroq informatsion etika global mohiyatga egaki, unda har qanday farqli va umumiy jihatlariga qaramasdan, insonlar bir soyabon ostida birlashadilar.

Uchinchidan, axborot bilan ishlash subyektlari axborot texnologiyalari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida axloqiy qadriyatlarning ontotsentrik mohiyatini kuchaytirish uchun informatsion etikaning asosiy kategoriya va tamoyillariga amal qilish axloqiy asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, har bir shaxs, xususan, yoshlar ongida ularni ommalashtirish ijtimoiy mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriy talabdir.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent.: O'zbekiston 2017, -B. 526.
2. Code of Ethics of the American Library Association. 2014.01.06
3. Erkayev A. Ma'naviyat-millat nishoni. -T.: Ma'naviyat.1999. 9-b.
4. Hoesung K. Seonglin A. A study on the Methodology of Information ethics Education in Youth. International Journal of Computer Science and Network Security. Vol:6. 2006
5. FROEHLICH.T A brief history of information ethics. International Federation of Library Associations. Munich: G.K.Saur. 1997, -P. 25.
6. L.FLORIDI. Foundations of Information Ethics. In book: The handbook of information and computer ethics. John Wiley&Sons, Inc. Canada.-P.3-21.
7. Severson R.J. The principles of Information ethics. NY: M.E.Sharpe. 1997, -P. 149.
8. Zwass V. Ethical Issues in Information Systems. New York: Taylor and Francis:2010, 1761-6.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº 4 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).